



AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI

Qudratov Mamayusuf Abduxoliq o'g'li

*Toshkent davlat transport universiteti, Yurisprudensiya yo'nalishi 4-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada aybsizlik prezumpsiyasining huquqiy tizimdagi o'rni, uning tarixiy shakllanishi, xalqaro huquqdagi ahamiyati hamda O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Aybsizlik prezumpsiyasining jinoyat-protsessual qonunchilikdagi huquqiy asoslari, uning shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi roli hamda adolatli sudlovni ta'minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu tamoyilning amaliyotda qo'llanilishi va buzilishi natijasida yuzaga keladigan huquqiy hamda ijtimoiy oqibatlar ko'rib chiqilgan. Maqolada aybsizlik prezumpsiyasining to'liq ta'minlanishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Aybsizlik prezumpsiyasi, jinoyat protsessi, adolatli sudlov, inson huquqlari, huquqiy davlat, ayblovni isbotlash majburiyati, sud mustaqilligi, huquqiy kafolatlar.

Аннотация: В данной статье анализируется значение презумпции невиновности в правовой системе, её историческое формирование, роль в международном праве, а также особенности применения в правовой системе Республики Узбекистан. Рассматриваются правовые основы презумпции невиновности в уголовно-процессуальном законодательстве, её значение в обеспечении прав и свобод личности и в осуществлении справедливого правосудия. Особое внимание уделяется практическому применению данного принципа и негативным правовым и социальным последствиям его нарушения. В статье обосновывается, что соблюдение презумпции невиновности



является важным условием формирования правового государства и развития гражданского общества.

Ключевые слова: Презумпция невиновности, уголовный процесс, справедливое правосудие, права человека, правовое государство, бремя доказывания, независимость суда, правовые гарантии

Annotation: This article analyzes the role of the presumption of innocence within the legal system, its historical development, significance in international law, and its application in the legal framework of the Republic of Uzbekistan. The legal foundations of the presumption of innocence in criminal procedural legislation are examined, along with its importance in protecting individual rights and ensuring fair trial standards. The article also addresses the practical implementation of this principle and the legal and social consequences arising from its violation. It is concluded that the effective enforcement of the presumption of innocence is a key factor in strengthening the rule of law and developing a democratic civil society.

Keywords: Presumption of innocence, criminal procedure, fair trial, human rights, rule of law, burden of proof, judicial independence, legal guarantees.

Kirish

Zamonaviy huquqiy davlatda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, adolatli sudlovni ta'minlash hamda qonun ustuvorligini qaror toptirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur maqsadlarga erishishda aybsizlik prezumpsiyasi asosiy huquqiy tamoyillardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Ushbu prinsip jinoyat protsessida shaxsning aybi sud tomonidan qonuniy tartibda isbotlanmaguncha, u aybsiz deb hisoblanishini nazarda tutadi va shaxsni nohaq ayblovi hamda adolatsiz jazolardan himoya qilishga xizmat qiladi. Aybsizlik prezumpsiyasi nafaqat milliy huquqiy tizimlarda, balki xalqaro huquqda ham e'tirof etilgan umumiy huquqiy prinsip hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlarda ushbu tamoyil inson huquqlarini himoya qilishning muhim



kafolati sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Bu esa aybsizlik prezumpsiyasining universal ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham aybsizlik prezumpsiyasi Konstitutsiya va jinoyat-protsessual qonunchilikda mustahkamlangan bo'lib, adolatli sudlovni ta'minlash va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur tamoyilning amaliyotda to'liq va samarali qo'llanilishi sud-huquq tizimining xolisligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada aybsizlik prezumpsiyasining tarixiy shakllanishi, xalqaro huquqdagi o'рни, O'zbekiston huquqiy tizimidagi huquqiy asoslari hamda amaliyotdagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur prinsip buzilgan holatlarda yuzaga keladigan huquqiy va ijtimoiy oqibatlar yoritilib, aybsizlik prezumpsiyasining adolatli sudlovni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Asosiy qism

Aybsizlik prezumpsiyasi har qanday huquqiy tizimning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu qoida jinoyat jarayonida shaxsning aybi sud tomonidan isbotlanmaguncha, u aybsiz deb hisoblanishini anglatadi. Mazkur prinsip shaxsning erkinligi va huquqlarini himoya qilish bilangina cheklanmay, balki jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Aybsizlik prezumpsiyasining asosiy mazmuni shundan iboratki, shaxs o'z aybsizligini isbotlashga majbur emas. Aksincha, jinoyat sodir etilganligini va shaxsning aybini **davlat isbotlashi lozim**. Ya'ni ayblov faqat aniq dalillar asosida ilgari surilishi mumkin. Bu holat davlat organlarining mas'uliyatini oshiradi va noqonuniy ayblovlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mazkur prinsip xalqaro huquqda ham keng e'tirof etilgan. Xususan, BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va Yevropa Inson Huquqlari Sudi amaliyotida aybsizlik prezumpsiyasi inson huquqlarini himoya qilishning

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.



muhim kafolati sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlar orqali shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligida ham mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu tamoyilning to'liq va to'g'ri qo'llanilishi adolatli sudlovni ta'minlash, fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va erkin jamiyatni barpo etishda muhim ahamiyatga ega. Aks holda, ya'ni bu prinsip buzilgan taqdirda, shaxs huquqlari poymol etilishi va adolatsiz qarorlar qabul qilinishi mumkin.

Aybsizlik prezumpsiyasi huquqiy tamoyil sifatida qadim zamonlardan beri shakllanib kelgan bo'lib, u asosan adolatli sudlovni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilish zaruratidan kelib chiqqan. Tarix davomida bu prinsip ko'plab huquqiy tizimlar rivojiga va inson huquqlari sohasidagi muhim islohotlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Qadimiy huquq tizimlari va diniy ta'sirlar. Aybsizlik prezumpsiyasining dastlabki ko'rinishlari qadimgi yunon va rim huquq tizimlarida uchraydi. Xususan, Rim huquqida "nemo tenetur seipsum accusare", ya'ni hech kim o'zini o'zi ayblashga majbur emas degan qoida mavjud bo'lgan. Bu prinsip shaxsni o'z aybini isbotlash majburiyatidan ozod qilgan. Biroq aybsizlik prezumpsiyasi hozirgi zamonaviy mazmunda mustaqil huquqiy tamoyil sifatida shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni talab etgan.²

O'rta asrlar va inkvizitsiya davri. O'rta asrlarda, ayniqsa diniy inkvizitsiya sudlari faoliyat yuritgan davrlarda, aybsizlik prezumpsiyasiga deyarli amal qilinmagan. Inkvizitsiya sudlarida shubha ostiga olingan shaxslar ko'pincha oldindan aybdor deb hisoblangan. Natijada, ko'plab begunoh odamlar nohaq sudlangan va jazolangan. Bu davrda jinoyatni isbotlash jarayoni ko'pincha adolat tamoyillariga zid ravishda olib borilgan va ayblovning o'zi ayb mavjudligining dalili sifatida qabul qilingan.

² Ashworth A., Horder J. *Principles of Criminal Law*. – Oxford: Oxford University Press, 2023.



Yangi davrda rivojlanishi. XVI asr oxiri va XVII asr boshlaridan boshlab Yevropaning ayrim davlatlarida huquqiy tizimlarni isloh qilish jarayoni boshlandi. Ayniqsa, Angliya va Fransiyada aybsizlik prezumpsiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Angliyada "habeas corpus" qonuni va sud ishlarini hakamlar hay'ati ishtirokida ko'rib chiqish tizimi joriy etildi. Bu orqali shaxsning aybi sudda isbotlanmaguncha uni erkinlikdan mahrum etish mumkin emasligi g'oyasi mustahkamlandi.

Fransiyada esa 1789 yilda qabul qilingan Inson va fuqarolik huquqlari deklaratsiyasi aybsizlik prezumpsiyasini asosiy inson huquqlari qatoriga kiritdi. Ushbu hujjatning 9-moddasida har bir shaxs uning aybi qonuniy tartibda isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanishi belgilab qo'yildi. Bu qoida keyinchalik butun Yevropa huquqiy tizimlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Xalqaro huquq va zamonaviy davr. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. 1948 yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasida aybsizlik prezumpsiyasi aniq mustahkamlab qo'yildi. Unda shaxsning aybi isbotlanmaguncha uning huquqlari buzilmasligi lozimligi ta'kidlangan.

Shuningdek, 1950 yilda qabul qilingan Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasining 6-moddasida ham aybsizlik prezumpsiyasi muhim huquqiy tamoyil sifatida e'tirof etilgan.³ Ushbu hujjat Yevropa davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, Yevropa Inson Huquqlari Sudi o'z faoliyatida mazkur prinsipga qat'iy rioya etilishini talab qiladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tamoyillardan biridir. Bu prinsip, avvalo, jinoyat-protsessual qonunchilikda mustahkamlangan bo'lib, shaxs huquqlarini himoya qilish, adolatli sudlovni ta'minlash va fuqarolarning erkinliklarini kafolatlashda muhim rol o'ynaydi. Aybsizlik prezumpsiyasining amaldagi huquqiy tizimda qanday qo'llanilayotgani va uning amaliy ahamiyatini tushunish uchun

³ Yevropa Kengashi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya (Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi). – Rim, 1950.



ushbu tamoyilning huquqiy asoslari, jamiyatdagi o'zni hamda amaliyotdagi ahamiyatini ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aybsizlik prezumpsiyasi aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 28-moddasiga⁴ko'ra, shaxsning aybi qonuniy tartibda isbotlanmaguncha u aybdor deb hisoblanmaydi. Bu norma aybsizlik prezumpsiyasi O'zbekiston huquqiy tizimida yuqori darajadagi huquqiy kafolat ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ham mazkur prinsip o'z aksini topgan. Unga binoan, jinoyat ishi bo'yicha shaxsni aybdor deb topish uchun ayblovi sudda isbotlanishi shart. Ayblovni isbotlash majburiyati sudya, prokuror, tergovchi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yuklatilgan. Demak, ayblanuvchi shaxs o'z aybsizligini isbotlashga majbur emas. Shu orqali uning erkinligi, sha'ni va obro'sini himoya qilish qonun bilan kafolatlanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi jamiyatda katta ahamiyatga ega, chunki u shaxs huquqlarini himoya qilish, sud jarayonining adolatli o'tishini ta'minlash va jinoyatni isbotlash mas'uliyatini davlat zimmasiga yuklashga xizmat qiladi. Agar bu prinsipga rioya qilinmasa, sudlov jarayonining adolatli bo'lishi va shaxs erkinliklarini saqlab qolish imkoniyati yo'qoladi. O'zbekiston huquqiy tizimi aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilish orqali jinoyat protsessida fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi hamda sudlarning mustaqil va xolis qarorlar qabul qilishiga sharoit yaratadi. Bu esa jamiyatda qonun ustuvorligi va adolatning qaror topishiga xizmat qiladi. Aybsizlik prezumpsiyasi davlat tomonidan beriladigan muhim huquqiy kafolat bo'lib, jinoyat javobgarligiga tortilgan har bir shaxsning erkinligi, obro'si va boshqa asosiy huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi.⁵

O'zbekistonda aybsizlik prezumpsiyasining amaliyotda to'liq qo'llanilishi jinoyat protsessining adolatli va xolis bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyatga

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

⁵ Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi va jinoyat protsessi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.



ega. Agar ushbu prinsipga rioya qilinmasa, sud xatolari va nohaq hukmlar chiqarilishi ehtimoli ortadi. Shu sababli, O'zbekiston qonunchiligida ayblovni isbotlash majburiyati davlat zimmasiga yuklatilgan hamda ayblanuvchi shaxsning erkinligi va huquqlarini himoya qilish qat'iy belgilangan.

Aybsizlik prezumpsiyasini ta'minlash maqsadida jinoyat protsessida bir qator amaliy mexanizmlar joriy etilgan. Jumladan, jinoyat ishi bo'yicha tergov jarayonida tergovchi va prokurorlar ish holatlarini har tomonlama, to'liq va xolisona o'rganishi, shuningdek, ayblanuvchining aybsizligini ko'rsatadigan dalillarni ham yig'ishi va tekshirishi shart. Sud jarayonida esa sudlanuvchining o'zini himoya qilish huquqi, advokat yordamini olish imkoniyati va aybsizligini isbotlashga qaratilgan dalillarni keltirish huquqi kafolatlanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasining buzilishi O'zbekistonda jiddiy huquqiy va ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin. Agar tergov yoki sud organlari shaxsning aybsizligini inobatga olmasdan, uni oldindan aybdor deb hisoblasalar, bu holat qonun buzilishlariga va noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'ladi. Natijada, shaxs noqonuniy hibsga olinishi, nohaq sud hukmi chiqarilishi yoki adolatsiz jazoga tortilishi mumkin.

Bunday holatlar inson huquqlarining buzilishiga, adolatga bo'lgan ishonchning susayishiga va sud-huquq tizimiga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib keladi. Bu esa jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, huquqiy davlat tamoyillariga putur yetkazadi. Aybsizlik prezumpsiyasining O'zbekistonda tutgan o'рни, uning huquqiy asoslari, amaliyotda qo'llanilishi va jamiyatdagi ahamiyati alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu tamoyil, bir tomondan, adolatli sudlovni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi hamda jinoyatni isbotlash majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi. O'zbekiston huquqiy tizimi ushbu prinsipni to'liq amalga oshirish orqali fuqarolarni nohaq jazolardan himoya qilish va adolatni qaror toptirishga intilmoqda. Shu bilan birga, aybsizlik prezumpsiyasiga rioya qilinmasligi



jamiyat uchun xavfli huquqiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi sababli, uning barcha bosqichlarda qat'iy ta'minlanishi muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, aybsizlik prezumpsiyasi har qanday huquqiy davlatning asosiy va ajralmas tamoyillaridan biri bo'lib, u shaxs huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Ushbu prinsip jinoyat protsessida adolatli sudlovni ta'minlash, davlat organlarining vakolatlarini qonun doirasida amalga oshirish hamda ayblanuvchini nohaq jazolardan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada aybsizlik prezumpsiyasining tarixiy shakllanishi, xalqaro huquqdagi o'rni va O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimidagi mustahkam huquqiy asoslari atroflicha tahlil qilindi. O'zbekiston Konstitutsiyasi va jinoyat-protsessual qonunchiligida mazkur tamoyilning mustahkamlanganligi mamlakatda inson huquqlari va adolat tamoyillariga sodiqlik mavjud ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, ayblovni isbotlash majburiyatining davlat zimmasiga yuklatilgani aybsizlik prezumpsiyasining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, aybsizlik prezumpsiyasiga rioya qilinmasligi jiddiy huquqiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ham aniqlandi. Nohaq sud qarorlari, inson huquqlarining buzilishi va sud tizimiga bo'lgan ishonchning pasayishi bunday holatlarning asosiy salbiy natijalari hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur tamoyilning tergov, prokuratura va sud faoliyatida qat'iy va izchil ta'minlanishi muhimdir. Aybsizlik prezumpsiyasining to'liq va samarali amalga oshirilishi O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda jamiyatda adolat va ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2024.



3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi*. – Nyu-York, 1948.
4. Yevropa Kengashi. *Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya (Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi)*. – Rim, 1950.
5. Yevropa Inson Huquqlari Sudi. Aybsizlik prezumpsiyasiga oid sud amaliyoti materiallari. – Strasburg, 2021–2024.
6. Saidov A.X. *Inson huquqlari va adolatli sudlov: xalqaro standartlar va milliy tajriba*. – Toshkent: Adolat, 2022.
7. Xudoyberdiyev B.T. *Jinoyat-protsessual huquq: darslik*. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2023.
8. Rustamboyev M.X. *Jinoyat huquqi va jinoyat protsessi*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.
9. Трубников В.М. *Презумпция невиновности в уголовном процессе*. – Москва: Юрайт, 2021.
10. Ashworth A., Horder J. *Principles of Criminal Law*. – Oxford: Oxford University Press, 2023.